MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOII, IQTISODII VA SHAHSII OMILLARNING QIYOSII NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOII QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIIAVII RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSII MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODII VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIIAVII MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODII-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODII SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarirovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farhod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	



O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Safarov G'iyosiddin Abdullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliq va soliqqa tortish kafedrası professori (DSc)
ORCID: 0000-0002-3324-1519

Annotatsiya. Ilmiy maqolada xorij mamlakatlari hamda respublikamizda "Tax free" tizimi, uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiq qilinib, xorijiy tajriba asosida O'zbekistonda "Tax free" tizimini rivojlantirish istiqbollari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tax free, QQS, QQS foiz stavkasi, operator, turizm, chakana savdo.

Abstract. This paper investigates the "Tax Free" system in foreign countries and Uzbekistan, as well as its importance in the development of the country's economy. Moreover, the paper highlights the prospects for the development of the "Tax Free" system in Uzbekistan based on foreign experience.

Key words: tax Free, VAT, VAT rate, operator, tourism, retail trade.

Аннотация. В данной статье изучена система «Tax Free» в зарубежных странах и Узбекистане, а также ее значение в развитии экономики страны. Более того, в статье освещены перспективы развития системы «Tax Free» в Узбекистане на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: tax Free, НДС, процентная ставка НДС, оператор, туризм, розничная торговля.

KIRISH

Hozirgi davr iqtisodiyoti o'zining keng ko'lamliligi, dinamik rivojlanishi, tarkibiy murakkabligi va global ahamiyati bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda tovar narxini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi an'anaviy iqtisodiy omillar bilan bir qatorda soliqlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tovar va xizmatlar narxining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, ko'plab mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llaniladigan tovar va xizmatlar doirasining kengligi hamda uning hisoblash va undirish mexanizmining nisbatan murakkabligi ushbu soliqni boshqa soliq turlaridan ajratib turadi. Mazkur soliq, avvalo, fiskal vazifani bajarishga qaramay, iqtisodiyotda bir qator muhim tartibga soluvchi funksiyalarni ham amalga oshiradi. Jumladan, turizm faoliyatining jozibadorligini oshirish, iste'molni rag'batlantirish va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni isloh qilish doirasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan [1]. Ushbu strategik yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda tashqi savdoni erkinlashtirish, soliq tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Shu jarayonda chet davlat fuqarolariga O'zbekiston hududida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish tartibi (Tax free) 2023-yildan boshlab joriy etildi. Mazkur mexanizmning amaliyotga yangi tatbiq etilganligi uni ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, Tax free tizimini rivojlangan davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish mamlakatimizda turizm oqimini kengaytirish, xorijiy iste'molchilar faolligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tax Free tizimi – bu chet ellik sayyohlar yoki rezident bo'lmagan shaxslar tomonidan xarid qilingan tovarlar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS, VAT) qaytarib berishga mo'ljallangan mexanizmdir. Ushbu tizim rivojlangan davlatlarda samarali qo'llanib kelinayotgani sababli, jahon amaliyotida keng tarqalib, xalqaro turizm va chakana savdoni rag'batlantiruvchi muhim vositaga aylanmoqda.

Jahon soliq amaliyotida chet el fuqarolari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaslik yoki keyinchalik qaytarib olish huquqi Tax Free tizimi orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida ushbu mexanizm joriy etilgan bo'lib, u turizmni rivojlantirish va xorijiy iste'molchilar xarid faolligini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

Shu bilan birga, AQSh tajribasi mazkur tizimning muqobil shakllari mavjudligini ko'rsatadi. Mamlakatda an'anaviy Tax Free mexanizmi joriy etilmagan bo'lsa-da, yirik savdo maydonchalarida xorijiy pasport taqdim etilgan taqdirda 11 foizgacha chegirmalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu yondashuv soliqni qaytarishdan ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri iste'molni rag'batlantirishga qaratilgan alternativ model sifatida e'tirof etiladi [4].

Yaponiya tajribasida esa Tax Free tizimi nafaqat soliq mexanizmi, balki turizm infratuzilmasining muhim elementi sifatida qaraladi. Yaponiyada qo'llaniladigan model soliqni keyinchalik qaytarish tamoyiliga emas, balki xarid jarayonining o'zida sotuv solig'idan ozod qilishga asoslangan bo'lib, bu sayyohlar uchun qulaylik va soddalikni ta'minlaydi [3].

Mamlakatimizda Tax Free tizimi nisbatan yaqinda joriy etilganligi sababli, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Shu bilan birga, amaliyot jarayonida tizimni yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatuvchi ayrim jihatlar aniqlanmoqda. Xususan, jarayonning ko'p bosqichli ekani – mobil ilovada ro'yxatdan o'tish, cheklarni skanerlash, aeroportda tovarlarni tasdiqlash hamda belgilangan muddatdan so'ng mablag'ni qaytarib olish tartibi – tizimni soddalashtirish va raqamli integratsiyani kuchaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi [3].

Mazkur jihatlar Tax Free tizimini xalqaro ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish, uning qulayligi va samaradorligini oshirish orqali O'zbekiston turizm salohiyatini yanada rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tax Free tizimini joriy etilishi, uning ahamiyatini tadqiq etish jarayonida nazariy tadqiqotlardan ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xorij tajribasi asosida Tax free tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tax Free tizimi xorijiy fuqarolar tomonidan sotib olingan tovarlar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasini ular xarid amalga oshirilgan mamlakat hududidan chiqib ketayotganda qaytarib berish imkoniyatini nazarda tutadi. Qaytariladigan mablag' miqdori amaldagi QQS stavkasiga, tovarning xarid narxiga hamda Tax Free operatori tomonidan undiriladigan xizmat komissiyasiga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda qaytarish summasi mamlakatlar kesimida farqlanib, odatda xarid qiymatining 7 foizidan 22 foizigacha bo'lgan oraliqda shakllanadi.

Mazkur tizimdan nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslar ham foydalanishlari mumkin. Xususan, yuridik shaxslar uchun chet el xizmat safarlari doirasida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha Business Tax Free mexanizmi qo'llaniladi [4]. Bu esa xalqaro biznes aloqalarini rivojlantirish va xizmat safarlari xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy mehmonlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda QQSdan ozod etish mexanizmining joriy etilishi turistlarning xarid faolligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Natijada chakana savdo hajmi kengayadi, turizm bilan bog'liq xizmatlar rivojlanadi hamda umumiy iqtisodiy faollik kuchayadi.



Tarixiy jihatdan Tax Free tizimi ilk bor 1980-yilda Shvetsiyaning Trelleborg shahri bilan Germaniya o'rtasida qatnovchi paromda sinov tariqasida joriy etilgan. Mazkur tajribaning ijobiy natijalari ushbu mexanizmning qisqa muddatda boshqa davlatlar tomonidan ham qabul qilinishi va keng yoyilishiga zamin yaratgan.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida bir nechta yirik Tax Free operatorlari faoliyat yuritib, ular turli mamlakatlarda ushbu tizimning tashkiliy va texnik jihatdan samarali ishlashini ta'minlamoqda. Mazkur operatorlar va ularning faoliyati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tax Free operatorlari [5]

Premier Tax Free	Tax Free Worldwide	Global Blue	Innova Tax Free
20 ta davlatni, shu jumladan 15 ta Yevropa davlatlarini (Avstriya, Belgiya, Italiya, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Gresiya, Niderlandiya, Vengriya, Irlandiya, Portugaliya, Ispaniya, Shvesiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya) va dunyoning boshqa qismlarida joylashgan 5 ta davlatni (Argentina, Janubiy Afrika, Marokash, Iordaniya, Singapur) o'z ichiga oladi. Irlandiya Premier Tax Free xizmati 1985-yilda The Fintrax Group tomonidan yaratilgan.	8 ta davlatni (Avstriya, Germaniya, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Farer orollari) birlashtirgan va Premier Tax Free ga kirgan.	36 ta davlatni, shu jumladan: 29 ta Yevropa davlatlarini (Avstriya, Belgiya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gresiya, Vengriya, Islandiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Lixtenshteyn, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Sloveniya, Slovakiya, Ispaniya, Shvesiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya) va dunyoning boshqa qismlarida joylashgan 7 ta davlatni (Argentina, Janubiy Koreya, Marokash, Turkiya, Singapur, Yaponiya, Urugvay) o'z ichiga oladi. Shveysariyaning Global Blue xizmati 1980-yilda Global Refund Group tomonidan yaratilgan.	Beshta davlatni (Ispaniya, Fransiya, Angliya, Italiya, Portugaliya va XXR) o'z ichiga olgan.

1-jadvalda yirik Tax Free operatorlari va ularga a'zo mamlakatlar keltirilgan bo'lib, mazkur tizimning samarali faoliyat yuritishida ushbu operatorlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Global Blue operatori 36 ta davlatni qamrab olgan holda, Tax Free mexanizmining global miqyosda barqaror va samarali ishlashini ta'minlayotgan yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Premier Tax Free operatori ham 20 ta davlatni o'z ichiga olgan yirik operatorlardan biri bo'lib, xalqaro sayyohlar uchun soliqni qaytarish jarayonini soddalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida Tax Free tizimini joriy etish bo'yicha huquqiy asos O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi 653-son qarori bilan belgilandi. Mazkur qarorga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab chet davlat fuqarolariga O'zbekiston hududida chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan ayrim turdagi tovarlarni xarid qilishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasini qisman qaytarish (Tax Free) tizimi tajriba tariqasida joriy etildi [2].

Qarorda belgilanishicha, Tax Free tizimi – bu chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida ayrim tovarlar xarid qilinganda to'langan QQS summasini mamlakat hududidan chiqib ketishda belgilangan miqdorda qaytarib berish mexanizmidir. QQS summasini qaytarish jarayoni chet davlat fuqarolari tomonidan sotib olingan tovarlar faqat kuzatuv bagaji yoki qo'l yukida o'zi bilan birga O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketilishi tasdiqlangandan so'ng amalga oshiriladi.

Bunda QQS summasini qaytarish uchun murojaat tovar xarid qilingan kundan boshlab uch oy muddat ichida amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, QQS summasini qaytarish faqat haqiqatan QQS to'langan tovarlar bo'yicha qo'llaniladi. Tax Free tizimi tatbiq etiladigan xarid qilingan tovarlarning umumiy qiymati bir million so'mdan kam bo'lmashligi shart etib belgilangan [2].

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, chet davlat fuqarosiga to'langan QQS summasi uning O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketganligi tasdiqlangan oydan keyingi oyning 25-kunidan keyin qaytarilishi nazarda tutilgan. Qaytarish miqdori xarid qilingan tovarlar bo'yicha jami to'langan QQS summasining 90 foizini tashkil etadi. Qolgan 10 foiz esa Tax Free operatorining xizmat haqi sifatida ushlab qolinadi.

Mazkur tartib O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, xorijiy iste'molchilarni rag'batlantirish va chakana savdo sohasida qo'shimcha iqtisodiy faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida baholanadi.



2-jadval. 2023-yil yanvar-oktyabr oylarida chet davlat fuqarolariga QQS summasini qaytarish bo'yicha umumiy MA'LUMOT [6]

T/r	Oylar	Ro'yxatga olingan cheklar bo'yicha ma'lumot				Rad etilgan cheklar bo'yicha ma'lumot				To'lovga tasdiqlangan cheklar bo'yicha ma'lumot				Chet el fuqarolariga to'langan Tax free summasi			
		Cheklar soni	Chet el fuqaro-lari soni	Cheklar summasi	Shundan QQS summasi	Cheklar soni	Chet el fuqaro-lari soni	Cheklar summasi	Shundan QQS summasi	Cheklar soni	Chet el fuqaro-lari soni	Cheklar summasi	Shundan QQS summasi	Fuqaro soni	so'mda	AQSh dol-larida	Evroda
1	Yanvar	77	30	350 250 682	37 280 261	36	17	195 358 571	20 853 755	41	19	154 892 111	16 426 506	8	6 851 999	596	
2	Fevral	196	67	800 979 120	82 207 388	22	10	35 048 469	3 637 443	174	64	765 930 651	78 569 945	24	51 227 977	4443	
3	Mart	319	104	996 344 882	102 851 349	67	33	54 436 621	4 448 562	252	96	941 908 261	98 402 787	48	47 429 167	4121	
4	Aprel	518	158	1 606 962 532	167 592 453	109	41	136 365 670	13 315 497	409	154	1 470 596 862	154 276 956	75	84 920 185	7384	
5	May	622	186	2 696 610 852	284 398 330	143	45	170 518 675	17 071 835	479	181	2 526 092 177	267 326 495	62	112 807 843	9468	
6	Iyun	439	115	1 897 959 757	201 324 495	106	23	180 882 738	18 472 358	333	111	1 717 077 019	182 852 137	40	28 455 930	2415	
7	Iyul	263	61	792 592 415	83 662 044	128	16	31 903 804	2 936 535	135	59	760 688 611	80 725 509	24	32 656 161	2705	
8	Avqust	196	55	1 024 722 956	107 865 657	78	11	26 741 125	2 708 669	118	53	997 981 831	105 156 988	23	36 346 301	2975	
9	Sentyabr	120	51	905 361 076	95 802 584	14	8	34 443 571	3 662 097	106	47	870 917 505	92 140 487	29	52 968 611	4332	
10	Oktyabr	184	81	1 073 694 337	113 644 108	62	15	49 867 261	4 080 868	122	74	1 023 827 076	109 563 240	38	50 468 057	3868	210
Jami:		2 934	908	12 145 478 609	1 276 628 669	765	219	915 566 505	91 187 619	2 169	858	11 229 912 104	1 185 441 050	371	504 132 230	42 307	210

2-jadvalda 2023-yil yanvar-oktyabr oylarida chet davlat fuqarolariga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasini qaytarish bo'yicha umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Tahlil qilinayotgan davrda 908 nafar chet el fuqarosi Tax Free tizimidan foydalanish maqsadida 2 934 ta xarid chekini ro'yxatdan o'tkazgan. Mazkur cheklardan 858 nafar chet el fuqarosiga tegishli 2 169 ta chek, ya'ni ro'yxatdan o'tgan cheklardan 94,5 foizi to'lovga tasdiqlangan.

Shu bilan birga, 219 nafar chet el fuqarosining 765 ta xarid cheki (jami ro'yxatdan o'tgan cheklarga nisbatan 26,0 foiz) to'lovga rad etilgan. Ushbu holatlar asosan amaldagi qonunchilikda belgilangan talablar va shartlarga to'liq mos kelmaganligi bilan izohlanadi.

To'lovga tasdiqlangan cheklar jami cheklar sonining 74,0 foizini tashkil etib, ularning umumiy qiymati 11,2 mlrd so'm, shundan QQS summasi 1,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur cheklar bo'yicha chet el fuqarolariga 42 307 AQSh dollari va 210 yevro miqdorida to'lovlar amalga oshirilgan. To'langan Tax Free summasi to'lovga tasdiqlangan cheklar bo'yicha qaytarilishi lozim bo'lgan jami summaning 42,5 foiziga teng bo'lgan.

Olib borilgan tahlillar respublikamizda Tax Free tizimi qisqa muddat ichida izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Jumladan, QQS (Tax Free) summasini qaytarish ko'rsatkichlari quyidagicha shakllangan:

- 2023-yilda – 421 nafar chet el fuqarosiga 138,4 mln so'm;
- 2024-yilda – 1 458 nafar chet el fuqarosiga 633,2 mln so'm;
- 2025-yilda (31-oktabr holatiga) – 2 352 nafar chet el fuqarosiga 4,8 mlrd so'm [7].

Tax Free tizimi doirasida eng ko'p xarid qilingan mahsulotlar quyidagilardan iborat:

- kiyim-kechak va kiyim aksessuarlari;
- poyabzal;
- parfumeriya, kosmetika va pardoz buyumlari;
- soatlar.



QQS (Tax Free) qaytarilishi bo'yicha yetakchi TOP–3 shaharlar quyidagilar hisoblanadi:

- Toshkent;
- Samarqand;
- Buxoro.

Tax Free tizimidan foydalanish uchun chet davlat fuqarosining "Soliq" mobil ilovasida ro'yxatdan o'tishi va xaridlari bo'yicha berilgan onlayn-NKT fiskal cheklarini skanerlashi yetarli hisoblanadi. "Tax Free" summasini hisoblash hamda uni chet el fuqarosining bank plastik kartasi yoki bank hisobvarag'iga o'tkazish jarayonini "Qo'dshy" mobil ilovasi orqali onlayn rejimda kuzatib borish imkoniyati yaratilgan.

"Tax Free" summasi chet davlat fuqarosining O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketganligi tasdiqlangandan so'ng, Tax Free tizimida ro'yxatdan o'tilgan oydan keyingi oyning 25-kunidan keyin qaytariladi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar QQS summasini qaytarish jarayonining nisbatan uzoq muddat talab etishi tizim samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur holat xorijiy tajriba asosida O'zbekistonda Tax Free tizimini takomillashtirish, xususan, qaytarish muddatlarini qisqartirish va jarayonlarni soddalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bu borada Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar tajribasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hududda Tax Free tizimi nafaqat har bir davlat doirasida, balki butun ittifoq miqyosida samarali qo'llanilmoqda. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda Tax Free tizimi tatbiq etiladigan tovarlar bo'yicha to'langan QQS summasini tezkor qaytarish amaliyoti yo'lga qo'yilgani tizimning jozibadorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Tax Free tizimi turizmni rivojlantirish, chakana savdo hajmini oshirish hamda mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashda muhim iqtisodiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu mexanizm xorijiy turistlarning xarid faolligini rag'batlantiradi va turizm bilan bog'liq xizmatlar sektorining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda Tax Free tizimi joriy etilgan bo'lishiga qaramasdan, uni yanada samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Xususan, raqamlashtirish darajasini oshirish, jarayonlarni soddalashtirish, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar doirasini kengaytirish hamda xorijiy turistlarning xabardorligini kuchaytirish tizim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy ilg'or tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali Tax Free tizimini takomillashtirish O'zbekiston uchun dolzarb va istiqbolli vazifa hisoblanadi. Xorijiy tajriba asosida mamlakatimizda ushbu tizimni rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- jahon iqtisodiy hamjamiyatida yetarli tajribaga ega bo'lgan yirik Tax Free operatorlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va ularning ilg'or amaliyotlaridan foydalanish;
- Tax Free tizimi tatbiq etiladigan tovarlar bo'yicha to'langan QQS summasini qaytarish muddatlarini qisqartirish orqali chet davlat fuqarolarining manfaatdorligini oshirish. Bunda xorijiy turistlarga O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish vaqtida, ularning xohishiga ko'ra, mablag'larni naqd yoki boshqa qulay shakllarda qaytarish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy amaliyot shuni tasdiqlaydiki, Tax Free tizimining samaradorligi uning soddaligi, to'liq raqamlashtirilganligi va turistlarga yo'naltirilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, O'zbekistonda mazkur tizimni izchil takomillashtirish turizm daromadlarining oshishiga, savdo va xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi "Chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishda avval xarid qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tizimini joriy etish to'g'risida" VMQ-653-son Qarori. <https://lex.uz/docs/6278382>
3. Karimov D. Tax Free tizimining turizm va iste'mol faolligini rivojlantirishga ta'siri: Yaponiya tajribasi va O'zbekistonda amalga oshirish muammolari. <https://www.norma.uz>
4. Голубцова Е.В., Голощапова А.С. & Оганова А.С. (2019). Развитие системы Tax Free в России на основе зарубежного опыта. International Journal of Professional Science, №11.
5. Паулов П.А. & Краскина Е.Ю. (2021). Сравнительная характеристика системы Tax Free в Российской Федерации и в зарубежных странах. International Journal of Humanities and Natural Sciences, 2-1(53).
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Rasmiy statistik va tahliliy ma'lumotlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
